

**XORIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA INSON KAPITALI RIVOJLANISH  
JARAYONLARINIING ETNOSOTSIAL HUSUSIYATLARI****M.M.Sodirjonov***Namangan davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Zamonaviy ijtimoiy tadqiqotlarda inson kapitalini sotsiologik tadqiq etish hamda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada etnosial jarayonlarda birinchidan, inson kapitali tushunchasining sotsiologik genezisini aniqlash, uning ijtimoiy hodisa sifatida innovatsion rivojlanish jihatlarini kuzatish va ikkinchidan, inson kapitali muammosini ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida tadqiq etildi.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, etnosotsial, dinamika, transformatsiya, innovatsiya, fan, ta'lim, salomatlik, madaniyat, industrial, posmodernizm, fenomen, jamiyat, urf-odat, mentalitet.

**Этносоциальная характеристика процессов развития человеческого капитала в  
зарубежных социологических исследованиях**

**Аннотация.** В современных общественно-научных актуальное значение приобретают социологические исследования и изучение человеческого капитала. В данной статье в этнических процессах, во-первых, определить социологический генезис концепции человеческого капитала, рассмотреть аспекты его инновационного развития как социального явления, во-вторых, проблема человеческого капитала как социокультурного феномена была раскрыта, исследована.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, этносоциальный, динамика, трансформация, инновации, наука, образование, здоровье, культура, индустриальный, постмодернизм, феномен, общество, традиция, менталитет.

**Ethno-social characteristics of the development of human capital in foreign sociological research**

**Abstract.** In modern social studies, sociological research and study of human capital is gaining urgent importance. In this article, in ethnic processes, first, to determine the sociological genesis of the concept of human capital, to observe the aspects of its innovative development as a social phenomenon, and secondly, the problem of human capital as a socio-cultural phenomenon was researched.

**Keywords:** Human capital, ethnosocial, dynamics, transformation, innovation, science, education, health, culture, industrial, postmodernism, phenomenon, society, tradition, mentality.

Globallashuv jarayonlari kechayotgan bir davrda ham etnik va demografik vaziyatlar dolzarb masala sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. O'z navbatida, xalqaro miqyosda urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida xalqlarning assimilyatsiyalashuvi, demografik marginallikning tezlashib ketishi tufayli inson omiliga bog'liq yangi muammolarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bunday vaziyatda milliy va etnosotsial xususiyatlar asosida inson kapitalining mohiyati, uning rivojlanib borish tendensiyalari va turmush barqarorligi masalalarini o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Jahonning yetakchi ilg'or tadqiqot markazlari va universitetlarida "inson kapitali" muammosi etnosotsial va milliy identiklik xususiyatlarini inobatga olgan holda ilmiy izlanishlarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Xalqaro miqyosda inson kapitalini takomillashtirishga doir mehnat bozorining samarali ishlash mexanizmlarini joriy qilish, demografik va etnik omillarning urbanizatsiya jarayonlariga ijtimoiy ta'siri, mintaqaviy yoki hududiy xususiyatlarga ko'ra aholi zichligiga oid muammolar tahliliga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Etnosotsial jarayonlarda kechayotgan innovatsion jarayonlar misolida biz sotsiumning dinamikasi va transformatsiyalashuviga sotsiologik jihatdan baho berishimiz mumkin. Chunki har qanday inson omili bir manzildan ikkinchisiga ko'char ekan, uning asosida innovatsiyalar, ya'ni yangiliklar va o'zgarishlar yotadi. XX asrning 30 yillaridan boshlab ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar

xususiyatlarini kuzatadigan bo'lsak, ular texnologik va asr so'ngiga kelib axborot-texnik inqiloblar natijasida vujudga kelganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Hozirgi ilmiy-nazariy diskursda inson kapitalining innovatsiyalar bilan bog'liqligi xususida ko'p martalab ilmiy mulohaza yuritilmasin, unda etnosotsial omillarning ham o'rni yuqoriligini inkor etish qiyin. Dunyo tajribasida "Yapon mo'jizasi", "Osiyo yo'lbarzlari" (Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya kabi davlatlar nazarda tutiladi), "Qayta uyg'ongan Xitoy" kabi atamalarining ilmiy talaffuzga kiritilgani, hamda iqtisodiyot, siyosat, ta'lim, ijtimoiy rivojlanish sohalarida foydalanilayotganligi ma'lum[19].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Sotsiumda axborot-texnologik innovatsiyalarga bog'liq o'zgarishlar "chizig'i" texnik jihat va iqtisodiy tomondan sotsiomadaniy tomonga transformatsiyalashdi. Inson kapitalini rivojlantirish sohasidagi innovatsiya masalalari dolzarblashdi. Ishlab chiqarish sohasi ketidan, madaniyatning boshqa sohalariga ongli, maqsadli innovatsion faoliyat obyekti bo'ldi. Bu esa bir qator tadqiqotchilarga ijtimoiy-madaniy tipida innovatsion rivojlanishga uzil-kesil o'tishini tasdiqlashga imkon beradi[1]. Kapital uchun shakllangan ustuvorliklardagi almashinuvlar to'g'risidagi ilmiy prognoz konsepsiyalari ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sohalariga tendensiyalarini o'rganishga qaratildi. Masalan, amerikalik sotsiolog D.Bellning "postindustrial jamiyat" nazariyasi[2] asosan madaniyat sohasini qamrab olgan bo'lsa, ispaniyalik mutafakkir olim M.Kastels ishlarida siyosiy kapital masalalarini ko'rishimiz mumkin[3].

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida dunyo bo'ylab keng tarqalgan postindustrial jamiyatdan keyingi madaniy paradigma "postmodernizm" nazariyasi ijtimoiy-madaniy kapital xususiyatlarga "davogar"lik qiladi. Rossiyalik taniqli olim A.Kravchenko postmodernizm fenomenini tavsiflab, qayd etadi: "Postmodernizm o'z mavjudligi orqali ikkinchi ming yillik so'ngiga kelib aynan madaniyatni kishilik jamiyatining yangilanishlari ro'y beradigan soha bo'lishligini isbotladi"[4].

Zamonaviy ijtimoiy tadqiqotlarda inson kapitaliga innovatsiyalarning ta'siri o'rganilar ekan, uning fenomenini o'rganish texnik-iqtisodiy muhitning tor doirasi bilan cheklangan. Bugungi kunda shakllanib borayotgan inson kapitali omilini madaniyat makonida o'rganishga bo'lgan urinishlar ham jamiyat hayotida murakkab yaxlit ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ko'rib chiqishdan yiroqlashdi. Bizning nazarimizda ushbu fenomenlar "texnik yangilik"[5], "rivojlanish vositasi"[6] iboralari sifatida talqin qilinib, uning qaysidir ma'noda atrof-muhit tomonidan anglashga bo'lgan kechikishlar sabab bo'lishi mumkin.

Etnosotsiologik tadqiqotlarda ijtimoiy-madaniy paradigma pozitsiyasi o'ziga xos o'rin tutib, uning ilmiy asosini A.Veber, P.Sorokin, A.Axiyezer, N.Lapinlarning ilmiy qarashlarida kuzatishimiz mumkin. Etnosotsiologik tadqiqotlar jarayonida mutafakkirlar "madaniyat" tushunchasini ilgari surib, uning negizida butun bir tizimga asoslangan ijtimoiy-madaniy jihatlarni tahlil etadilar. Inson hayot faoliyatining ijtimoiy va madaniy omillarini hamma vaqt ham qat'iy metodologik yondashuvlarga asoslanib aniq bir strukturaviy holatga keltirishning iloji yo'q, deb hisoblaydilar.

Sotsiologik nazariyalar tizimida o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan "ijtimoiy-madaniy" yondashuvning asoschisi P.Sorokin ta'kidlaydi: "Jamiyat va madaniyat – o'ziga xos shunday birlikki, unda sotsium o'zining sotsiomadaniy aloqa va jarayonlarga kirishish bilan individumni tashkil etadi. O'z navbatida madaniyat sotsiumdagi ma'nolar, qadriyatlar, me'yorlar majmuini obyektivlashtirib, kishilarni etnik va diniy jihatdan ijtimoiylashuvga tayyorlab beradi. Madaniyat shu tariqa inson ijtimoiy hulkining asosiy, ammo faqat uning o'zigagina xos bo'lgan xususiy (shaxsiy) determinanti (ilgari suruvchi) sifatida jamiyatga etnomadaniy omil sifatida uyg'unlashadi"[8].

Ijtimoiy-madaniy o'zaro ta'sir etnosotsial jihatdan P.Sorokin qarashlariga ko'ra o'ziga xos matritsa bo'lib, uning har bo'lagi mavjud makonda aniqlovchi va aniqlanuvchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi. O'zining "Sotsiomadaniy dinamika" deb nomlangan asarida u shunday yozadi: "Har qanday buyuk madaniyat nafaqat turli hodisalarning birgalikda mavjud bo'lgan, lekin bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan birikmasi, balki barcha tarkibiy qismlari bitta asosiy tamoyilga qaragan va bitta asosiy qadriyatni ifodalagan birlik yoki individuallikdir. Bunday yagona madaniyatning nafis san'atlari va ilm-fani, falsafasi va dini, axloqiy va huquqiy asoslari, ijtimoiy, iqtisodiy va amaliy tashkil etishning asosiy shakllari, ko'p ma'noda, urf-odatlar, turmush tarzi va fikrlashi (mentaliteti) – bularning barchasi uning asosiy prinsipi va asosiy qadriyatini o'zicha ifoda etadi. Aynan qadriyatlar har qanday madaniyatning asosi va poydevorini tashkil etadi. Shu sababli bunday integral madaniyatning tarkibiy qismlari ham ko'pincha o'zaro bog'liq: birontasi o'zgargan holatda, qolganlari

ham albatta o'xshash transformatsiyaga uchraydi"[7]. Sorokin fikrlaridan ko'rinib turibdiki, inson kapitali bilvosita sotsiomadaniy jarayonlarga o'zaro bog'liq.

Inson kapitali omilini ijtimoiy-madaniy tizimda sotsiumning muhim bo'lgan sotsial maqomidan kelib chiqib, ijtimoiy-madaniy yaxlitlik sifatida anglash, uning asosiy bazaviy tamoyil va qadriyatlarini belgilab beradi. Agar uni etnosotsial yondashuvlardan kelib chiqib aniqlaydigan bo'lsak, bir qator jihatlar oldinga o'rinlarga chiqadi. Jumladan, etnik yoki milliy farq, shunga oid mentalitet va identiklik, hududiy joylashganlik, atrof-muhit va uning uzoq yillar mobaynida shakllangan atmosferasi, diniy jarayonlar, zamonaviylikni belgilab beruvchi ijobiy yoki salbiy jihatlar (ilm-fandan tortib migratsiya jarayonlarigacha) va h.z.

Inson kapitalini etnomadaniyat tushunchasi bilan bog'lab o'rganar ekanmiz, bunda birinchi navbatda "sivilizatsiya" tushunchasiga alohida to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi. Mahalliy tadqiqotchi K.Kalanov fikriga ko'ra: "XVIII-XIX asrlarda zamonaviy madaniyat so'zining ko'p qirrali, ammo chalkash ma'noli tarixi boshlandi. Bu davrda madaniyatning izohini ifodalovchi "culture" talaffuzi yoniga "civilis", ya'ni "fuqaroga taalluqli", "fuqaroga oid" ma'noni beruvchi atama qo'shildi. U lotincha "civis" – fuqaro so'zi bilan qo'shilgan holda "sivilizatsiya" jamlanmasining o'zagini tashkil qiladi. XX asrning 90 yillarida (keyinchalik ham) o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ayrim tadqiqotchilar ushbu atamani forsiydagi "tamaddun" so'zi bilan izohlashga harakat qildilar. Ta'kidlash mumkinki, bu izoh o'zbek tilida o'zining to'liq lug'aviy ifodasini bera olmadi. Xususan, sotsiolog va siyosatshunos tadqiqotchilar orasida keng munozarali asar hisoblangan S.Xantingtonning mashhur asari ingliz tili (The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order)dan tarjima qilinganda "Tamaddunlar yoki sivilizatsiyalar to'qnashuvi..." deb emas, balki "Madaniyatlar to'qnashuvi..." deb talaffuz qilinmoqda (K.K.)"[8].

Sivilizatsiyaga e'tibor qaratishimizning asosiy shartlaridan biri shundaki, bugun juda ko'p taraqqiy etgan mamlakatlar inson kapitali va ijtimoiy kapital muammolarini yuksak madaniy taraqqiyot asosida yechimini hal etdilar. Atoqli nemis sotsiologi Maks Veberning akasi Alfred Veber fikriga ko'ra, "madaniyat va sivilizatsiya – ikkita o'zaro yaqindan bog'liq, ammo turli fenomenlardan tashkil topgan xususiyatlardir. Agar madaniyat bizning hayotiy borlig'imizdan yuqori ko'tarilganimizda paydo bo'ladigan hodisa bo'lsa, u holda sivilizatsiya borliq ratsionalizmi, tabiat kuchlarini o'zlashtirish, qo'llaniladigan ishlab chiqarish vositalarining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning mevalaridan turli qit'alarda yashovchi odamlar, turli madaniyat qadriyatlarining sohiblari foydalanmoqda. Sivilizatsiya yutuqlaridan foydalanish - madaniyat rivojlanishining zarur sharti, yangi, yanada yuqori bosqichga o'tishdir. Turli mamlakatlarda kechayotgan sivilizatsion rivojlanish jarayoning birligi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida etnik va milliy xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilish uchun asos bo'ladi"[9].

Endi e'tiborimizni inson kapitali vujudga kelishida zamonaviy etnosotsial jihatlariga ham o'z ta'sirini o'tkaza oladigan "innovatsiya" tushunchasiga qaratamiz. "Innovatsiya" atamasi lotincha "innovato" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yangilanish yoki yaxshilanish ma'nosini anglatadi. Ushbu atama ilk bor XIX asr G'arb madaniyatshunoslari ilmiy tadqiqotlarida sotsiumdagi "madaniy diffuziyalar"[10] ni ta'riflash uchun qo'llanilgan. Unga ko'ra madaniyatning bir unsurlari boshqasi bilan uyg'unlashuv jarayonlari nazarda tutiladi. Xususan, ilmiy izlanishlarda qator tadqiqotchilar[11] Yevropa urf-odatlarini va hayot faoliyatini tashkil etish usullarining Osiyo va Afrika madaniyatlariga kiritilishi to'g'risida so'z yuritilgan. Demak, yevrotsentrizm vakillari madaniyat "niqobi"ga berkingan g'oyalar asosida ilk davrlarda ta'sir o'tkazishni boshlaganlar. Bu jihat fanda "siyosiy kapital" sifatida e'tirof qilinadi.

XX asr o'rtalarida innovatsiyalarning tushunchaviy mazmuni bir qadar o'zgara boshladi. Bu esa inson kapitali mavzusiga ham yangicha ma'noviy yo'nalishlarni ishlab chiqishni talab etardi. O'tgan asrning sohaga oid yirik tadqiqotchilari N.Kondratyev va Y.Shumpeterlar inson kapitalini iqtisodiy rivojlanish bilan bog'lab o'rganar ekanlar, innovatsiya fenomeni va jamiyatning iqtisodiy dinamikasi o'rtasidagi munosabatlarni inson omiliga bog'lab asoslashga harakat qiladilar.

Hozirgi innovatsion nazariyalarning shakllanishida diqqatga sazovor ma'lumotlarni N.D.Kondratyevning iqtisodiy-texnologik rivojlanish konsepsiyasida uchratish mumkin. U "rivojlangan sanoatning chuqur islohotlar va texnika inqiloblariga yangi hududlarni jalb qilishda, mavjud malakali mehnatni zamonaviy kadrlar tayyorlash orqali"[12] ifoda etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, har qanday muhim texnik ixtiro va kashfiyotlar inson salohiyatini o'zlashtirish bilan

bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy konyukturaning davriy jihatlarini mavjudligi bilan amalga oshadi. Kondratyev davriy aylanishlarni tahlil etar ekan, "to'qimachilik sanoati va cho'yan ishlab chiqarishdagi ixtirolar, siljishlar birinchi to'lqin (XVIII asr oxiri) rivojida; ikkinchi to'lqin davri esa (XIX asr o'rtalari) temir yo'llar qurilishi, dengiz transporti rivojlanishi bilan bog'liqligini; uchinchi to'lqin (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) elektronika sohasidagi ixtirolar va elektr toki, shuningdek, radio to'lqinlar tufayli yangiliklarni ommaviy joriy etish bilan bog'liqligini asoslaydi. Biz to'rtinchi to'lqinni Internetning ixtiro qilinishi va u bilan bog'liq axborotlashgan jamiyat bilan bog'lab ko'rsatamiz. Kondratyev fikriga ko'ra, "ilmiy-texnik kashfiyot va ixtirolarning inson omiliga yo'nalganligi, intensivligi amaliy haqiqat talablari sifatida fan-texnikaning avvaldan rivojlanganligi funksiyasidir".[12] Biroq ularni amalda keng tatbiq etish uchun iqtisodiy shart-sharoitlar darkor: "ilmiy-texnik ixtirolar mavjud bo'lishi mumkin, ammo ularni tatbiq etish uchun zarur iqtisodiy shart-sharoitlar bo'lmasa, amaliy natija bermaydi... Texnika rivojlanishining o'zi iqtisodiy dinamika qonuniy jarayoniga kiritilgan"[12].

Kelib chiqishi avstriyalik bo'lgan tadqiqotchi Y.Shumpeter tomonidan ilgari surilgan nazariyada inson kapitali omili ham o'z rivojini topadi.[13]. Y.Shumpeter Kondratyev izidan borib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mavjudligini bevosita innovatsiyalar to'lqini bilan bog'laydi. O'zining ilmiy nazariy qarashlarida u innovatsiyalar bevosita foyda va moddiy boyliklar ortishiga olib keladigan texnologik taraqqiyotning o'zaro aloqasidan kelib chiqadi. Innovatsiyalar inson kapitaliga mavjud salohiyatdan kelib chiqib xizmat qiladi.

Ammo bu yuksak madaniyatni talab etadi. N.Kondratyev va Y.Shumpeter tadqiqotlari hozirgi zamon innovatsion taraqqiyot masalalari asosini tashkil etdi. Ular tomonidan aniqlangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik inson taraqqiyoti va omiliga bog'liq fundamental ilmiy tadqiqotlarning dastlabki davridan to so'nggi, ya'ni iste'mol qilish sohasigacha bo'lgan amaliy tatbiq etishdagi kompleks jarayonlarni o'rganishni taqozo etdi. Ijtimoiy fanlar tizimida "innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon", "innovatsion davr" kabi tushunchalar paydo bo'ldi. Aynan ularning natijasida, bugungi kunda inson omili masalalariga jiddiy munosabat bildirila boshlandi.

Etnosotsial tadqiqotlarning zamonaviy ko'rinishlarini ifodalashda innovatsiyalar nazariyasining ahamiyati oshib borar ekan, ularni tadqiq etishning yangi davri XX asrning 70-yillarida kuzatiladi. Dunyoda global iqtisodiy inqiroz davri kuzatilar ekan, uning o'rniga "bazisli innovatsiya"lar to'lqini vujudga keladi. Bunday tadqiqotlar "sahna"siga B.Santo, G.Mensh, A.Klayxnext, K.Frimen, J.Zaltmen, P.Drakerlar o'z tadqiqotlari natijalari bilan kirib keldilar. Xususan, vengriyalik mutaxassis bo'lgan B.Santo innovatsilarning inson kapitali rivojiga ulushini o'ziga xos tushunib, uni quyidagicha ta'riflaydi: "innovatsiyalar – bu ijtimoiy-texnik-iqtisodiy jarayon bo'lib, ular g'oya va ixtirolarni amaliy qo'llash orqali o'zining xususiyatlari bo'yicha inson ehtiyojlarini qondirishda eng yaxshi buyum va texnologiyalarni yaratishga yetaklaydi"[14].

Bugungi kunda globallashtirilgan dunyoda axborot-kommunikativ inqilobi tufayli vujudga kelgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar to'lqini sababli, "innovatsiya" tushunchasi nazariy jihatdan barcha sohalarga qo'llanila boshlandi. Ushbu tushunchaning ko'p ma'noligi uchun biz o'z tadqiqot ishimizda uning ta'riflarini etnosotsiologik tadqiqotlar orqali inson kapitaliga ham joriy etdik.

Innovatsiyada ilmiy g'oya yoki texnik ixtiro amaliy tatbiq etish bosqichiga yetkazilgach iqtisodiy samara berishni boshlaydi. Shunday qilib, innovatsiya fenomeni hozirgi zamon ilmiy diskursida ko'pincha iqtisodiy dinamikaga sabab bo'lgan yangilikka asoslansa-da, uning transformatsiyalashuvini inson kapitaliga bog'lab ko'rsatish mumkin. Undagi ilmiy qarash va tushunchalarni "kashfiyot", "ixtiro" atamalariga ham qiyoslash mumkin va u sotsiologik nuqtai nazardan semantik tahlil etiladi.

Etnosotsiologik pozitsiyadan turib tahlil etilsa innovatsion yondashuvlar orqali inson kapitali hududiy siklga ko'ra "kashfiyot" orqali amalga oshiriladi. U kreativlikni talab etib, hodisa va jarayonlarga nisbatan ijodiy yondashuvni talab etadi. Kashfiyot mutlaq (absolyut)likga davo qilmasada, individual-shaxsiy saviyadagi mahsul sifatida namoyon bo'ladi. Uning sotsiomadaniy jihatlariga e'tibor qilsa etnosotsial jarayonlarni kreativ jarayon mahsuli sifatida namoyon qilishi mumkin. Rossiyalik tadqiqotchi I.Balabanov kashfiyot va innovatsiyani qiyosiyo tahlil etar ekan, ular o'rtasidagi farqni quyidagi xususiyatlarga ko'ra farqlaydi:



- Kashfiyot yoki ixtiro odatda fundamental jihatlarni, innovatsiya esa texnologik hodisalarni amaliyotga joriy etadi;

- Kashfiyot individual mazmun kasb etishi mumkin, innovatsiya esa jamoaviy, guruhli tarzda loyiha shaklida amaliyot (ijtimoiy hayot)ga tatbiq etiladi;

- Kashfiyotdan maqsad foyda ko'rishga qaratilmaydi, innovatsiya esa har doim biron bir aytarli manfaatni ko'zlaydi, xususan, katta mablag' kelishi, foyda ko'rish, mehnat unumdorligini oshirish orqali turmush farovonligini ko'tarish va shu kabilar;

- Kashfiyot tasodifan bo'lishi mumkin, innovatsiya esa doimiy izlanish va intilish natijasidir. U to'satdan paydo bo'lmaydi va ma'lum bir aniq maqsadga asoslanishni talab etadi"[15]. Shundan ham ko'rinib turibdiki, innovatsion jarayonlarda inson kapitali omili natijalarga sabab bo'ladi.

Innovatsiyaning g'oyaviy asoslarini aniqlash uchun nazariy-metodologik jihatdan "o'zgarish" tushunchasiga qiyoslash lozim. Shumpeter fikriga ko'ra sotsium o'zgarishlar orqali inson kapitalini aniqlashi va bir holatdan ikkinchisiga o'tishi uchun zamin yaratadi.

Fransiyalik taniqli tadqiqotchi La Pyerre "innovatsiyalarni dastlabki holatdan yangisiga o'tishi bilan xo'jalik (hudud) organizmi ichki tuzilishi o'zgarish sifatida baholanadi"[16]. Innovatsiyalar faqat sifat jihatidan ijobiy boshqariladigan, ongli ravishda boshlangan va amalga oshiriladigan o'zgarishlarni nazarda tutgan bo'lsa-da, mavjud o'zgarishlar ijtimoiy hayotdagi hodisalarning yanada kengroq ko'lamini belgilab berishi mumkin. O'zgarishlar sotsiumga yangilik olib kiradi. Rossiyalik taniqli sotsiolog olim I.Bestujev-Lada fikriga ko'ra: "Yangilik kiritish – bu boshqaruv qarorining shunday ko'rinishi, uning natijasida u yoki bu (texnik, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy) jarayonda qaysidir hodisalarning muhim o'zgarishi ro'y beradi"[17]. "O'zgarish" va "yangilik kiritish" kabi tushunchalarning o'zaro munosabati bizga inson omili va inson kapitali jarayonlarining dinamikasi va transformatsiyalashuv jihatlari haqqoniy aks ettiradi. Biroq, sotsiumga yangilik kiritish ko'p holatlarda "o'zgarish" tushunchasiga tobe bo'lib qoladi. A.Prigojin fikricha, "yangilikni joriy etish (kiritish) maxsus mexanizm sifatida ko'pincha maqsadli o'zgarishlarni amalga oshirishda foydalaniladi"[11].

Shunday qilib, innovatsiya tushunchasining "kashfiyot", "ixtiro", "yangilik" va "o'zgarish" tushunchalari bilan bog'liqlikdagi semantik tahlili inson kapitalini amalga oshirishda kreativ-nazariy bog'liqlikda etnomadaniy va etnohududiy tadqiqot yo'nalishlarini ochib beradi. XX asr ilmiy diskursida o'tkazilgan innovatsiyalar tahlili XXI asr yondashuvlarida keskin o'zgardi va sotsiomadaniy kontekst doirasidan chiqmaydi. Bizning nazarimizda, innovatsiya fenomeni texnik-iqtisodiy sohaning tor doirasidan allaqachon chiqib ketgan va bugungi kunda madaniyatning turli sohalarini ifodalovchi taraqqiyot hodisasidir. Innovatsion faoliyat zamonaviy jamiyatda inson kapitali rivojlanishining asosiy shartidir. Ta'lim, fan, salomatlik (tibbiyot), siyosiy (ijtimoiy siyosat), iqtisodiy (ehtiyotlar) ijtimoiy innovatsiya sifatida yuksak darajadagi sotsiomadaniy haqiqatning tavsifini beradi. Tadqiqotchi Ye.Krasnuxinaning ta'kidlashicha, "o'tmishning muqaddasligi hozirgi kunda qadrsizlanib bormoqda va ijtimoiy haqiqat sohasida an'ana emas, balki innovatsiya shakllantiruvchi kuch sifatida sahnaga chiqmoqda. Agar tarixning butun mazmuni dolzarbligi bilan bugungi kunda muhim bo'lsa-da, uning "ildizi"ga asoslangan o'tmish endi avvalgidek emas. Hozirgi zamon o'z-o'zini ishlab chiqarish, o'zini dekonstruksiya (rivojlantirish, qayta shakllantirish) qilish sifatida barpo bo'ladi... O'tmishni qayta jonlantirish esa innovatsiya ko'rinishida maqsadli yangilikka o'tadi... O'tmish qaytib kelib, takrorlanishi mumkin, faqatgina yangi siymoda, avvalgi narsalar yangilanib, novatsiya shakliga kirgandagina fuqarolik huquqini olishi mumkin. Shuning uchun an'anaviy o'tmish o'zini yangi va zamonaviy qilib ko'rsatadi"[18.21]. Shunday qilib, innovatsiyalar, birinchi navbatda, o'zining vaqti nuqtai nazaridan asoslanishini talab qiladigan murakkab ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi innovatsiya nafaqat madaniyatning bugungi kuni barcha xususiyatlarini qamrab oladi, balki yangilikka yo'naltirilgan fenomen sifatida madaniyat kelajagini o'zida mujassam etadi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, bizning fikrimizcha innovatsiyalar sotsiumda rivojlanishning yangicha ijtimoiy-madaniy modeli sifatida belgilanishi lozim. Bu ta'kidni asoslash uchun, etnomadaniy faoliyatni inson kapitaliga bog'lab, uning shakllanish jarayonlarini sotsiomadaniyat rivojlanishining har bir bosqichiga muvofiq, yangilik obyektivatsiyasi sifatida ijtimoiy modelini yaratish lozim bo'ladi.

Mavjud zamonaviy jamiyat o'ziga xos tizim va tuzilmalarga ega bo'lib, uning ijtimoiy xatti-harakatlari mazmuni, etnomadaniy shart-sharoitlari aholining tarkibiy qismi, joylashuvi, ekologik vaziyat, demografik-geografik omillar, hulq-atvor, madaniyat va axborot almashinuv xususiyatlari belgilab beradi. Bu borada Farg'ona vodiysida istiqomat qiladigan aholi kundalik hayoti, turmush tarzidagi xususiyatlarda inson kapitali masalalari etnosotsiologiya yo'nalishida atroflicha va tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Xususan, shu paytgacha bo'lgan kompleks sotsiologik tadqiqotlarda milliy va etnik munosabatlarda inson omilini hududiy nuqtai nazardan chuqur ilmiy asoslash imkoniyatini beradigan davriy qiyosiy ma'lumotlar yetarlicha mavjud emas.

### Adabiyotlar

1. Фонотов А.Г. Россия: Инновации и развитии. – М.: “Изд-во Бином”, 2010. – С. 37
2. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М.: Academia, 2004. – С. 47
3. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура: Пер. с англ. под науч. ред. О.И. Шкаратана. — М.: ГУ ВШЭ, 2000. – С. 601
4. Постмодернизм // Культура и культурология: Словарь / Сост.: А.И.Кравченко М.: Академия; Екатеринбург: Деловая книга, 2003 – 689 стр.
5. Келле В.Ж. Инновационная система России: формирование и функционирование – М.: Едиториал УРСС, 2003 – С.109
6. Фонотов А.Г. Россия: Инновации и развитии – М.: 2010 – С.37
7. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество / – М.: Политиздат, 1992 – С. 296
8. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и преобразование мирового порядка. – М.: АСТ-Геополитика, 2017. – 534 стр.
9. Шендрик А.И. Социология культуры – М.: Юнити-Дана, 2005. – С. 57-65
10. Александренков Э.Г. Диффузионизм в зарубежной западной этнографии // Концепции зарубежной этнологии. М, 1996, - С.26-67
11. Пригожин А.И. Современная социология организаций. М., 1995. – С. 185
12. Кондратьев Н.Д. Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения – М.: “Экономика”, 2002. – С. 211
13. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982. – С. 454
14. Васильева Н.Ф., Кавура В.Л. Модели инновационного развития экономики: зарубежный опыт реализации // Вестник института экономических исследований 2016, № 3. – С. 74
15. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент - СПб.: Питер, 2000. – С.12
16. La Pierre R.T. Social Change- New York, 1965
17. Бестужев-Лада И.В. курс лекций для студентов, обучающихся по направлению подготовки 080200.62 «Менеджмент» (профиль «Менеджмент организации») / Саратовский социально-экономический институт (филиал) ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова». – Саратов, 2014. – С. 124
18. Краснухина Е.К. Традиции и новации как формы образования социального // Серия “Symposium”, Инновации и образование., Выпуск 29 / Сборник материалов конференции Санкт-Петербург : Санкт-Петербургское философское общество, 2003. - С.121
19. Содирджонов М. Значение национальных и этносоциальных процессов в социологическом исследовании человеческого капитала //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5/5.
20. Содирджонов М. М. Мониторинг вопросов исследования человеческого капитала в этносоциальных процессах и социальные тенденции //Социальная политика и социальное партнерство. – 2021. – №. 6. – С. 447-458.
21. Содирджонов М. М. Изучение проблем человеческого капитала в этносоциологических процессах //В поисках социальной истины. – 2021. – С. 59-69.
22. Makhamadinovich S. M. Ethnic Factors And Attitudes Towards Human Capital Development //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 01. – С. 118-130.
23. Sodirjonov M. M. Inson kapitali pivojlanish japyonlapining etnosotsiologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida). Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – B. 43.